

EKVIVALENTLIK TAMOYILLARI ASOSIDA DINIY MATNLAR TARJIMASINI TADQIQ ETISH MASALALARI

Magistratura 2-bosqich talabasi

Eshonbuyayeva Mubina

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Ingliz tili tarjima

nazariyasi kafedrası professori

f.f.d. (DSc) G'. X. Raximov

Annotatsiya

Diniy matnlar mazmun jihatdan boshqa turdagi matnlardan tubdan farq qiladi. Bunday matnlar o'zlari bilan nafaqat ma'lumot, balki e'tiqod, umid, ishonch kabi muqaddas tuyg'ularni olib yuruvchi lug'aviy, axloqiy va tasavvufiy ma'nolar yig'indisidir. Shunday ekan bunday matnlarni tarjima qilish va ularda to'g'ri tarjima strategiyalaridan foydalanish tarjimon va tarjima sifati uchun birdek ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu maqola No'mon Alixonning "Qalbingni uyg'ot" asarida keltirilgan tarjima amaliyotidan olingan misollar yordamida diniy matnlar tarjimasida dinamik ekvivalentlik qo'llanishining ma'lum shartlari haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: diniy matnlar, ekvivalentlik, dinamik, formal, tarjima tahlili

Kirish

Insoniyatning qadim-qadimdan yangi bilimlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi ustidan g'olib bo'la olmaganining uning rivojlanishdan to'xtab qolmaganligining eng kuchli sabablaridandir. Tarjima amaliyoti esa turli elat va millatlarning o'zaro ilm-fan, madaniyat va e'tiqod almashinuvida mana shu sabablarning tayanch ustuni bo'lib xizmat qildi. Diniy matnlar o'zining lingvistik, semantik hamda estetik tabiati bilan boshqa matn turlaridan farq qiladi. Ular biror bir ma'lumotni yetkazish bilan birga ilohiy qudratga ega deb ham ishoniladi va shu sababdan, har bir so'zga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashishni va matnning "ruhi"ni saqlab qolishni talab qiladi. Shuningdek, bunday matnlar tarkibidagi so'zlar bir vaqtning o'zida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'nosida qo'llanilishi mumkin bo'lib, ularning har birida huquqiy, axloqiy va falsafiy tag ma'nolar yashiringan bo'lishi mumkin. Hozirgi globallashuv davrida diniy matnlarning to'g'ri va aniq tarjima qilinishi turli no'to'g'ri qarashlarning shakllanishini oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga dinshunos olimlar tomonidan yozilgan ilmiy-ommabop materiallarni turli tillarga tarjima qilish bilan boy diniy-falsafiy merosimizni jahonga tanitishning eng ishonchli usullaridan biri hisoblanadi. Yurtimizning diniy-ma'rifiy sohada olib borayotga siyosati hamda qadimiy qo'lyozmalarni o'rganishga qaratilgan katta e'tibori ostida ushbu sohada tarjima rivoji yanada ko'lab imkoniyatlar eshigini ochadi.

Adabiyotlarni o'rganish

Mazkur tadqiqot mavzusini yoritishda tarjimashunoslik nazariyasiga oid xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar o'rganildi. Xususan, ekvivalentlik nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi yuzasidan Eugene Nida, Werner Koller, Peter Newmark hamda Roman Jakobsonlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Ayniqsa, E. Nidaning formal va dinamik ekvivalentlik haqidagi nazariyalari diniy matnlar tarjimasini tadqiq etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Olim dinamik ekvivalentlik orqali tarjimada nafaqat mazmun, balki matnning o'quvchiga ko'rsatadigan ta'sirini ham saqlash zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, W. Koller tomonidan ishlab chiqilgan denotativ, konnotativ, text-normativ, pragmatik va formal ekvivalentlik tasnifi diniy matnlarning lingvistik va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilishda asosiy nazariy manba sifatida qo'llanildi. Ushbu yondashuv tarjima jarayonida ma'no, uslub, emotsional bo'yoq va kommunikativ maqsadning qay darajada saqlanishini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot davomida diniy matnlarning tarjima xususiyatlariga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda tarjimashunos olimlarning ishlari o'rganildi. Mahalliy tarjimashunos olimlarning diniy va badiiy matn tarjimasini bo'yicha qarashlari ham tahlil qilinib, o'zbek tilida diniy matnlarni tarjima qilishda milliy-madaniy omillarning ahamiyati ko'rib chiqildi. Shu asosda diniy matnlar tarjimasida ekvivalentlik tamoyillarining qo'llanishi nazariy va amaliy jihatdan yoritildi.

Asosiy qism

No'mon Alixonning o'zbek tiliga tarjima qilingan "Revive your heart" kitobidan quyida bir necha misollar keltirilib, diniy matnlar tarjimasining o'ziga xosliklari haqida amaliy ma'lumotlar keltiriladi:

"But let's take a step back, every single day you and I wake up and we did not have to have a respirator on for our lungs to keep working all night. Every single night when we went to sleep, our heart was still beating. Every single day when we got out of bed, we opened our eyes and we could still see; our ears could still hear, and wallahi, they're not on autopilot. They're not running on energizer batteries. This is Allah providing you and me with another breath, another heartbeat, another day to move our limbs. Yet the only time we turn to Allah is when we need something; when we feel we're missing something. But as a matter of fact, Allah is constantly providing you and me without us even asking".

Yuqoridagi matnda diniy matnlarga xos bo'lgan bir necha terminlar hamda uslubiy ifodalar qo'llanilgan bo'lib, tarjima jarayonida ekvivalentlikka uchradi hamda o'zbek kitobxonlariga tushunarli tarzda madaniy moslashtirildi:

"Keling endi bir fikr yuritib ko'ramiz. Har kuni qiyinchiliksiz nafas olishimiz uchun o'pkamizga sun'iy nafas berish uskunasi ulashga majbur bo'lmayapmiz. yuragimiz ham hech qanday moslamasiz kechayu-kunduz urishda davom etmoqda. har tong uyg'onib ko'zlarimizni ochganimizda ko'ra olyapmiz, eshita olyapmiz. Ular hech

qanday rejim asosida ishlamaydi, quvvatlari hech ham tugamaydi. Bu birgina tanamizda bizga berilganne'matlar, atrofda bunday ne'matlarning sanog'i yo'q. Bizga yana bir nafas, yana bir yurak urishi va yana bir go'zal kunni baxshida qilgan Alloh taolodir. Lekin biz unga faqat muxtoj bo'lganimizda, sog'ligimizda biror muammo paydo bo'lib, biror narsada kamchilik sezganimizda yo'nalamiz. Alloh taolo esa so'ramasak ham bizni tinimsiz siylashda davom etmoqda."

Ushbu matn tahlili tarjimashunoslikning lingvistik hamda pragmatik tamoyillariga tayanib amalga oshirildi. Keltirilgan tarjima matni ko'proq erkin tarjima va kommunikativ ekvivalentlik usulidan foydalanib amalga oshirilgan bo'lib, matnning shaklidan ko'ra mazmuniy ta'sirini yetkazishga urg'u berilgan. Matn muloqot darajasiga ko'ra eng yuqori darajadagi ekvivalentlikni saqlagan: *"But let's step back"* iborasi so'zma-so'z emas, balki muloqot maqsadidan kelib chiqib, *"shukrona keltirishga chorlov"* ma'nosida *"Keling endi bir fikr yuritib ko'ramiz"* shaklida tarjima qilingan.

Formal ekvivalentlik aslyat matnining grammatik shakli, sintaktik qurilishi yoki leksik birliklarini imkon qadar saqlaydi. Misol uchun, *"another breath, another heartbeat, another day"* sintaktik tuzilmasi *"yana bir nafas, yana bir yurak urishi va yana bir go'zal kun"* shaklida *"another"* birikmasining *"yana bir"* ko'rinishida saqlanishi va gapning sintaktik takrori ham formal ekvivalentlikning yaqqol namunasi hisoblanadi. *"Every single day"* birikmasining *"har kuni"* shaklida *"single"* kuchaytiruvchi elementi tushirib qoldirilsa ham asosiy strukturaviy ma'noning saqlanishida formal ekvivalentlikdan foydalanilgan.

Dinamik ekvivalentlikdan foydalanishning asosiy maqsadi aslyat matndagi hissiy ta'sirni yetkazish bo'lib, *"they're not on autopilot. They're not running on energizer batteries"* sintaktik gapning *"Ular hech qanday rejim asosida ishlamaydi, quvvatlari hech ham tugamaydi"* ifodasida *"energizer batteries"* jumlama-jumla tarjima qilinganda *"Energiya batareyalari ishlamaydi"* shaklida tarjima qilinib, o'quvchi uchun biroz tushunarsizlik uyg'otardi. Lekin tarjimon tabiiyroq va ta'sirliroq ifodani tanlagan va uning tarjimasida dinamik ekvivalentlikdan foydalangan. Shuningdek, *"Turn to Allah"* ifodasi o'zbek tiliga *"Allohga yo'nalamiz"* shaklida o'zbek tilidagi diniy uslubiy nutqqa moslashtirilgan.

Taniqli tarjimashunos olim Werner Koller tarjima jarayonini turli darajadagi mosliklarni talab qiladigan murakkab jarayon deya ta'riflab, ekvivalentlikning 5 darajasini ishlab chiqqandir. Quyidagi 1-jadval tarjimadagi ekvivalentlikning 5 turi haqida ma'lumot beradi:

1-jadval

Denotativ ekvivalentlik	Aslyat matn va tarjima matni o'rtasidagi voqelik, predmet va tushunchalarning aynan
-------------------------	---

	keltirilishini ta'minlaydi va shu bilan mazmuni to'g'ri yetkazadi.
Konnotativ ekvivalentlik	Asliyat matnining uslubi, so'z tanlashdagi o'ziga xoslik va hissiy-bo'yoqdorlikni saqlanishini ta'minlaydi
Matn - normativ ekvivalentlik	Muayyan matn janriga xos bo'lgan qoidalar va me'yorlarga tarjima davomida amal qilishni talab etadi
Pragmatik ekvivalentlik	Tarjima qilingan matnning qabul qiluvchiga asliyat matn kabi ta'sir ko'rsatishi va uning tarjima maqsadiga mos kelishini talab etadi
Formal ekvivalentlik	Asliyat matnining shakli, tuzilishi, ritmi va badiiy xususiyatlarini saqlab qolishga qaratilgan tarjima turi

Denotativ ekvivalentlik predmet va hodisalarning asosiy lug'aviy ma'nosini saqlashga xizmat qilib, *“our heart was still beating”*, *“we opened our eyes and we could still see”* ifodalari *“yuragimiz... urishda davom etmoqda”*, *“ko'zlarimizni ochganimizda ko'ra olayapmiz”* shaklida tarjima qilinib namoyon etiladi.

Konnotativ ekvivalentlik hissiy-uslubiy bo'yoqni saqlab, matn mazmunini kengroq yoritishga xizmat qiladi. Misol uchun, *“Allah is constantly providing you and me”* ifodasi *“Alloh taolo esa tinimsiz siylashda davom etmoqda”* shaklida tarjima qilinib, diniy va mehribonlik konnotatsiyasi kuchaytirilgan.

Matn-normativ ekvivalentlik tarjima matnining mazkur tildagi matn me'yorlariga mos bo'lishini bildiradi. Ingliz tilidagi matnda keltirilgan qisqa ritmik gaplar ketma-ketligi o'zbek tilida biroz kengaytirilib, ravon publitsistik-diniy uslubga moslashtirilgan: *“Every single day...”*, *“Every single night...”*, *“Every single day...”* ifodasi *“Bu birgina tanamizda bizga berilgan ne'matlar, atrofda bunday ne'matlarning sanog'i yo'q”* shaklida tarjima qilingan. Bu gap asliyat matnda keltirilmagan, biroq tarjimon tomonidan o'zbek diniy nutq uslubiga mos ravishda qo'shimcha izoh sifatida kiritilgan.

Pragmatik ekvivalentlik o'quvchiga ta'sir va tushunarliklikni moslashtirish bilan bog'liq bo'lib, *“respirator”* so'zini *“sun'iy nafas berish uskunasi”* sifatida, *“energizer batteries”* ifodasini esa *“quvvatlari hech ham tugamaydi”* shaklida o'zbek auditoriyasiga qulayroq va tabiiyroq shaklda pragmativ ekvivalentlik ifodalangan.

Formal ekvivalentlik matnning estetik va stilistik shaklini saqlaydi. Masalan, *“our ears could still hear”* ifodasining *“eshita olyapmiz”* shaklda tarjima qilinishi orqali mazmun ham, funksional grammatik tuzilma ham katta o'zgarishsiz tarjima matnida saqlangan.

Natijalar

W. Koller tomonidan tavsiya etilgan denotativ, konnotativ, text-normativ, pragmatik va formal ekvivalentlik turlari diniy matnlar tarjimasida o'zaro chambarchas bog'liq holda namoyon bo'lishi aniqlandi. Xususan, denotativ ekvivalentlik asosiy diniy mazmuni saqlashga xizmat qilsa, konnotativ ekvivalentlik matndagi hissiy va diniy bo'yoqdorlikni yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Pragmatik ekvivalentlik esa tarjimani maqsad auditoriyasiga moslashtirish orqali matnning tushunarligi va ta'sirchanligini oshiradi. Text-normativ ekvivalentlik yordamida tarjima maqsad tilining uslubiy me'yorlariga moslashtiriladi, formal ekvivalentlik esa matnning ayrim shakli va stilistik xususiyatlarini saqlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, diniy matnlar tarjimasida yagona ekvivalentlik turiga tayanish yetarli emas. Tarjimon matnning mazmuni, uslubi, diniy ruhiyati hamda o'quvchiga ko'rsatadigan ta'sirini hisobga olgan holda turli ekvivalentlik tamoyillarini uyg'un qo'llashi zarur. Aynan mana shunday yondashuv diniy matnlarning mazmunan to'liq, usluban tabiiy va pragmatik jihatdan samarali tarjima qilinishini ta'minlaydi. Demak, yuqoridagi tahlildan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, diniy matnlar tarjimasida ekvivalentlik tamoyillari tarjima sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Diniy matnlar faqatgina axborot yetkazuvchi emas, balki ma'naviy, hissiy va tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lganligi sababli, ularni tarjima qilish jarayonida mazmun, uslub va pragmatik ta'sirning uyg'unligini saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiq etilgan matn tahlili shuni ko'rsatdiki, diniy nutqlarda dinamik ekvivalentlik ko'proq qo'llanilib, tarjimon tomonidan asl matnning ruhiy-ta'siriy kuchini maqsad tilidagi o'quvchiga tabiiy va tushunarli shaklda yetkazishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, ayrim sintaktik parallelizmlar, takroriy birliklar va obrazli ifodalar orqali formal ekvivalentlik elementlari ham saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gafurov Ibrohim, Mo'minov Omon, Qambarov Nurali. Tarjima nazariyasi. - Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012.
2. Musayev Quadrat. Tarjima nazariyasi asoslari. -Toshkent: Fan, 2005.
3. Raximov G'. X. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti* (darslik - majmua). - Toshkent, 2020.
4. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. -Toshkent: O'qituvchi, 1983.
5. Baker Mona. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. -London: Routledge, 2018.
6. Bassnett Susan. *Translation Studies*. -London: Routledge, 2014.
7. Catford John C. *A Linguistic Theory of Translation*. -London: Oxford University Press, 1965.
8. Komissarov V. N. *Sovremennaya perevodovedeniye*. -Moskva: ETS, 2002.
9. Newmark Peter. *A Textbook of Translation*. -London: Prentice Hall, 1988.

10. Nida Eugene A. *Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating*. - Leiden: Brill, 1964.
11. Nida Eugene A., Taber Charles R. *The Theory and Practice of Translation*. - Leiden: Brill, 1969.
12. Nord Christiane. *Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained*. - London: Routledge, 2018.
13. Venuti Lawrence. *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. - London: Routledge, 2017.